

**INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION  
OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.**  
**International online conference.**

Date: 27<sup>th</sup> June-2025

**BIOLOGIYA DARSLARIDA STEAM YONDOSHUVINING QO'LLANILISHI**



**Rahmonova Mashxuraxon Gulomjonovna**

Andijon viloyati Shahrixon tuman 1-sون Politexnikumi  
biologiya fani o'qituvchisi

*"Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lif sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi"*

Sh.M.Mirziyoyev<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biologiya fanini o'qitishda zamonaviy STEAM yondashuvining afzalliliklari, metodik imkoniyatlari va amaliy jihatlari yoritilgan. Fanlararo integratsiya orqali o'quvchilarda nafaqat biologik tushunchalar, balki muhandislik, san'at, texnologiya va matematikaga oid ko'nikmalar ham rivojlanadi. Maqolada fotosintez mavzusi misolida real loyiha asosida dars tashkil etish namunasi, PhET simulyatsiyalaridan foydalanish va ijodiy yondashuvlar orqali darsni boyitish usullari keltirilgan. STEAM integratsiyasi o'quvchilarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va real muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Mazkur yondashuv biologiya fanini hayotiy, tushunarli va qiziqarli qiladi.

**Kalit so'zlar:** STEAM yondashuvi, biologiya darsi, fanlararo integratsiya, fotosintez, loyiha asosida o'qitish, PhET simulyatsiyasi, texnologiya, muhandislik, kreativ ta'lif, real hayotga bog'liqlik.



Zamonaviy ta'lif jarayoni o'quvchilarning nafaqat fanga oid bilimlarini, balki ularni real hayot bilan bog'lay olish, mustaqil fikrlash, yaratish va qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab etadi. Biologiya fani esa bunday ko'nikmalarini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, STEAM yondashuvi orqali biologiyani boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish o'quvchilarning fanlararo integratsiyalashgan bilimlarni egallahiga yordam beradi. Zamonaviy ta'lif jarayonida fanlarni bir-biridan ajratib o'rgatish o'rniغا, ular orasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beruvchi integratsion yondashuvlar muhim o'rinn tutmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlar, jumladan biologiyada bu yondashuv nafaqat fan mazmunini o'zlashtirishni, balki o'quvchilarning tahliliy va

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev Mironovich. Talim – tarbiya tizimi: tarqqiyotning yangi bosqichi. 1 - oktabr "Ustoz va murabbiylar kuni" tadbiridagi nutqi



# **INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.**

## **International online conference.**

Date: 27<sup>th</sup> June-2025



muhandislik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. STEAM yondashuvi esa o‘quvchining intellektual, estetik va innovatsion salohiyatini uyg‘un holda shakllantirish imkonini beradi.

STEAM yondashuvi va uning mohiyati

STEAM — bu beshta asosiy yo‘nalishni birlashtiruvchi ta’lim konsepsiysi:

- **S (Science)** — fan (biologiya, kimyo, fizika)
- **T (Technology)** — texnologiya (AKT, raqamli vositalar)
- **E (Engineering)** — muhandislik (loyihalashtirish, yechim topish)
- **A (Art)** — san’at (dizayn, tasviriy ifoda)
- **M (Mathematics)** — matematika (analiz, statistik tahlil)

Biologiya darslarida ushbu komponentlarni birlashtirish orqali o‘quvchilarni muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan loyihalarda faol ishtiroy etishiga erishiladi.

### **Biologiya darslarida STEAM integratsiyasi.**

Biologiya fanining eng muhim, shu bilan birga murakkab mavzularidan biri bo‘lgan “Fotosintez” ushbu yondashuvga eng mos keluvchi mavzulardan biridir. Ushbu maqolada aynan shu mavzuni STEAM yondashuvi asosida o‘rganish yo‘llari va natijalari tahlil qilinadi. Biologiyada STEAM elementlarini quyidagicha birlashtirish mumkin:

#### **1. Science – Biologik asoslar**

“Fotosintez” – bu o‘simliklarning yashil qismida, xloroplastlarda yuz beruvchi va yorug‘lik energiyasidan foydalanilgan holda karbonat angidrid va suvdan organik moddalar (glukoza) sintez qilinadigan murakkab biologik jarayondir.

#### **Fotosintezning ikki fazasi:**

- **Yorug‘lik fazasi:** fotokimyoviy reaksiya
- **Qorong‘ilik fazasi:** biokimyoviy

#### **Darsdagi biologik faoliyatlar:**

- Xloroplast tuzilmasini mikroskop ostida ko‘rish
- O‘simlik barglarida kislород ajralishini amaliy tajriba asosida kuzatish
- O‘simliklarning turli sharoitlarda (yorug‘lik, CO<sub>2</sub>, harorat) o‘sishini taqqoslash

#### **2. Technology – Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash**

Fotosintez mavzusini texnologiyalar yordamida o‘rgatish dars jarayonini interaktiv qiladi va o‘quvchining vizual idroki kuchayadi.

#### **Qo‘llaniladigan texnologiyalar:**

**PhET simulyatsiyasi (Colorado universiteti):** fotosintez tezligini turli omillar (yorug‘lik kuchi, CO<sub>2</sub> miqdori) asosida interaktiv o‘rganish

**AR/VR texnologiyalari:** o‘quvchilar virtual xloroplast ichida “sayohat” qiladi

**Digital tajribalar:** sensoriya vositalar orqali kislород yoki CO<sub>2</sub> miqdorini real vaqtda o‘lchash

**Natija:** O‘quvchilar fotosintezga ta’sir etuvchi omillarni virtual tajribalar orqali sinab ko‘radi va haqiqiy ilmiy tahlilga yaqinlashadi.

# INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

## International online conference.

Date: 27<sup>th</sup> June-2025

### 3. Engineering – Muhandislik va konstruktorlik faoliyati

Muhandislik komponenti o‘quvchilarni dizayn, modellashtirish va muammoga amaliy yechim topishga yo‘naltiradi.

#### Loyiha vazifasi:

- “Mini ekotizim kapsulasi” modellarini loyihalash – bu shisha idish ichida mustaqil yashovchi o‘simplikli sistema
- Yorug‘lik manbaini boshqaruvchi fotosintez inkubatorini yasash (sensorli dimer, LED yoritgich, termometrlar bilan)
- Barqaror energiya bilan ishlaydigan mini-issiqxona maketini yaratish

**Muhandislik kompetensiyasi:** Tizimli fikrash, loyihalashtirish, eksperiment dizayni

### 4. Art – Estetik va kreativ yondashuv

San’at elementi orqali o‘quvchilar mavzuni chuqur estetik va tushunarli tasvirlay oladi. Bu o‘z-o‘zini ifoda qilish va mavzuni “his qilish” ko‘nikmasini rivojlantiradi.


#### Ijodiy faoliyat turlari:

- “Fotosintez – hayot manbai” nomli ijodiy plakatlar, infografikalar





**INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION  
OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.**  
**International online conference.**

Date: 27<sup>th</sup> June-2025



-Sahnalashtirish: "Yorug'lik va Xloroplast suhbati"



-Fotosintez jarayonini dramatik syujetli hikoya sifatida yozish

-Animatsion video-roliklar tayyorlash

**Natija:** Mavzu o'quvchi xotirasida hissiy-estetik asosda mustahkamlanadi.

# INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

## International online conference.

Date: 27<sup>th</sup> June-2025

### 5. Mathematics – Analitik va miqdoriy tahlil

Fotosintez matematik qonuniyatlarga ham bo‘ysunadi. O‘quvchilar tenglamalarni balanslash, grafiklar chizish va tahlil qilish orqali matematik fikrlashni rivojlantiradilar.

#### Matematik faoliyatlar:

- Kimyoviy tenglamani

muvozanatlash:



- $\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6 + 6\text{O}_2 = 6\text{CO}_2 + 6\text{H}_2\text{O}$  yorug‘lik ta’sirida amalga oshadigan jarayon

bog‘liqlik

- Grafiklar tuzish: yorug‘lik intensivligi va fotosintez tezligi o‘rtasidagi

kitoblar

- Massaning o‘zgarishi, o‘simplik biomassasining ortishi bo‘yicha hisob-

Yana bir misol:

- **Fan:** Masalan, o‘simpliklarning fotosintez jarayoni o‘rganiladi.

**Texnologiya:** Fotosintez simulyatsiyasini PhET yoki boshqa raqamli vositalar orqali ko‘rsatish.

- **Muhandislik:** Mini issiqxona loyihasini yaratish (PET idish, tuproq, nurlar bilan tajriba).

- **San’at:** Issiqxona dizayni, o‘simpliklar hayot davrining vizual ifodasi.

- **Matematika:** O‘sish tezligini grafiklar bilan tahlil qilish.

Bunday dars o‘quvchini bir vaqtning o‘zida biologik jarayonni tushunishga, texnologiyadan foydalanishga, ijodkorlikka va tahlilga undaydi.

Amaliy misol: "Fotosintez laboratoriysi"

Dars mavzusi: O‘simpliklarning energiya olish jarayoni

O‘quvchilar vazifasi:



- Turli yorug‘lik sharoitida o‘simpliklarning o‘sish sur’atini o‘lchash
- Raqamli qurilmalarda ma’lumotni qayd qilish (texnologiya)
- Grafiklar chizish va tahlil qilish (matematika)
- Vizual taqdimot tayyorlash (san’at)

# INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

## International online conference.

Date: 27<sup>th</sup> June-2025

- Laboratoriya qurilmasini yaratish (muhandislik)
- STEAM yondashuvining ahamiyati
- O'quvchilar bilimni chuqurroq o'zlashtiradi
- Mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi
- O'quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasi ortadi
- XXI asr ko'nikmalariga ega shaxslar yetishib chiqadi

### *Xulosa*

STEAM yondashuvi biologiya fanining murakkab mavzularini o'qitishda kuchli vosita hisoblanadi. "Fotosintez" mavzusini ushbu yondashuv asosida o'rganish orqali o'quvchilar nafaqat biologik jarayonni chuqur tushunadilar, balki boshqa fanlardagi bilimlarini ham bir butun tizim sifatida ko'ra boshlaydilar. Natijada o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- Fanlararo fikrlash
- Amaliy tajriba asosida muammo yechish
- Ijodkorlik va dizayn qilish
- Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish
- Matematika asosida tahlil qilish

Bu yondashuv ta'limda **kompetensiyaviy yondashuvni** ro'yobga chiqaradi va XXI asr uchun zarur ko'nikmalarni shakllantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yakubov E., "Biologiya darslarida innovatsion metodlar", Toshkent, 2020.
2. UNESCO. (2021). Education for Sustainable Development.
3. Mavlonova R. va boshq., "Pedagogik texnologiyalar asoslari", Toshkent, 2019.
4. National Science Foundation, USA. (2018). "What is STEAM Education?"
5. [www.phet.colorado.edu](http://www.phet.colorado.edu) — Biologik jarayonlar uchun interaktiv simulyatsiyalar